

Institutimiz talabalar turar joylaridagi sharoitlar mutasaddilar tomonidan o'rganildi

Joriy yilning 7 - sentabr kuni Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari R.Xakimov 2021-2022 o'quv yili boshlanishi yuzasidan institutimiz talabalar turar joylariga talabalarga yaratilgan sharoitlarni o'rganish maqsadida tashrif buyurdi.



Talabalar uchun hozirlangan sharoitni o'rganish bilan bir qatorda xonalarga kirib yangi o'quv yili bilan talabalarni tabrikladi va suhbatlashdi. Talabalarga yaratilgan imkoniyatlar, qulayliklar hamda dars qilish, ovqatlanish madaniy hordiq chiqarish uchun yaratilgan imkoniyatlarni ko'zdan kechirdi.



TIQXMMI matbuot xizmati